

IQBOL MIRZONING VATANPARVARLIK SHE’RIYATIDA IRSOLI MASAL SAN’ATI

Sevara YOQUBOVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Sarvinoz HOTAMOVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 3-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878456>

Annotasiya. Ushbu maqola shoir Iqbol Mirzoning she’riyatini o‘rganishga qaratilgan. Iqbol Mirzo she’riyatida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi o‘quvchilar qalbiga singishida muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi. Shoirning vatanparvarlik ruhidagi she’rlarida irsoli masal san’ati sermahsul qo‘llanilgan. Maqolada Iqbol Mirzo she’rlaridan namunalar hamda tahlillar keltirilgan. Shoir o‘quvchilar, ya’ni badiiy adabiyot muxlislari ongiga Vatanparvarlik hamda ezgu tuyg‘ularni singdirishda xalq maqollari, iboralar va matallardan unumli foydalanganligining guvohi bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: Xalq maqollari, she’riyat, irsoli masal, ibora, san’at, obrazli tasvir, vatanparvarlik

Аннотация. Эта аннотация предназначена для изучения поэзии поэта Икбола Мирзо. Использование литературных инструментов в поэзии Икбола Мирзо играет важную роль в поглощении души читателя. Поэт эффективно использовал искусство пословиц-примеров в своих патриотических стихах. Приведены некоторые примеры стихов и анализов Икбола Мирзо. Вы можете узнать, как поэт эффективно использовал пословицы, фразы и поговорки в передаче патриотического и праведного чувства в умы читателя.

Ключевые слова: пословицы, поэзия, пример пословицы, фраза, искусство, образное изображение, патриотизм

Annotation. This annotation is intended to learn poet Iqbol Mirzo’s poetry. The usage of literary instruments in Iqbol Mirzo’s poetry plays an important role in absorbing by the reader’s souls. The poet effectively used the art of proverb-example in his patriotic poems. It is given some examples of Iqbol Mirzo’s poems and analyses. You can find out how the poet efficiently used proverbs, phrases and sayings in delivering patriotic and righteous feeling into reader’s minds.

Key words: proverbs, poetry, proverb-example, phrase, art, figurative portrayal, patriotism

Iqbol Mirzo ijodining xalq qalbiga yaqinligi, ya’ni xalqonaligini ta’minlagan omillardan biri bu, shoirning o‘z she’rlarida jonli xalq tilidagi maqollar, iboralar va masallardan unumli foydalana olganligidir. Shoir she’rlarining aksariyati “irsoli masal” san’ati bilan ziynatlangani uning o‘quvchi ongiga tez o‘rnashib qolishiga sabab bo‘ladi, deyish mumkin. Bu holat ayniqsa, I. Mirzoning vatanparvarlik mavzusidagi she’rlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mumtoz adabiyotda “irsoli masal” san’ati keng qo‘llaniladi. “Irsoli masal”, “maqol keltirish”, “masal keltirish” degan ma’noni bildiradi. “Masal” bilan “maqol”

soʻzlari mumtoz adabiyot namunalarida baʼzan sinonim boʻlib keladi. Jonli tilda masal kichik bir ibratli voqea maʼnosida qoʻllanadi. Adabiyotshunos olim A.Hojiahmedov “irsoli masal” ning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan ehtiyojni avval aytilgan fikrni tasdiqlash va uning toʻgʻriligiga shubha qoldirmaslik maqsadi bilan izohlaydi. Iqbol Mirzo oʻz ijodida “irsoli masal”ni asosan ikki usulda qoʻllaydi: 1) sheʼrda maqolni toʻliq keltiradi; 2) vazn talabiga koʻra maqol mazmunini saqlagan holda boshqa soʻzlar bilan ifodalaydi. Quyidagi toʻrtlikda “Avval oʻzingga boq, keyin nogʻora qoq” xalq maqolini toʻliq keltirish orqali shoir “olisdagi mahmadona”ga birovni tanqid qilishdan avval oʻziga bir nazar tashlashini sodda, tushunarli ammo aniq etkazib qoʻymoqda:

Olisdagi mahmadana, ey eski olchoq,

Menga qadam tashlamoqni oʻrgatmagin sen!

Oʻzingga boq, keyin, mayli, nogʻorangni qoq,

Menga qanday yashamoqni oʻrgatmagin sen!(“Qoʻshiq” sheʼridan)

Keyingi toʻrtlikda esa shoir ham maqol, ham ibora vositasida “irsoli masal”ning goʻzal namunasini taqdim etadi:

Yaltiragan hamma narsa emas tilla, hey,

Hayfdir senga Naqshbanddan qolgan salla, hey,

Ey xudoni tanimagan chalamulla, hey,

Menga qanday yashamoqni oʻrgatmagin sen!

Bunda shoir “Yaltiragan hamma narsa emas” xalq maqolining mazmuni orqali oʻzini “ilmi” koʻrsatib balandparvoz “gʻoyalari”, “maslahatlardan” lof urayotgan chalamulla (ibora) larning sipo qiyofasi ortida aslida noqis aql va tiyiqsiz nafs turganligini ifodalamoqda.

Iqbol Mirzo “Oydan tushgan emas” sheʼrida “Mevasini eginu bogʻini soʻramagin” maqoliga bugungi zamondoshimiz, yurtdoshimiz bamaylixotir ishonib, amal qilib qolmasligini, yaʼni bu tinchlik, osoyishtalik, farovonlik oʻz-oʻzidan bino boʻlib qolmaganligi va albatta uni asrab, avaylash kerakligini taʼkidlaydi:

Mevasin eb, bogʻini ham soʻrab qoʻygin,

Kerak boʻlsa, bogʻ atrofingni oʻrab qoʻygin.

Nihollarning kokillarini tarab qoʻygin,

Ozodlik ham, obodlik ham oʻzi kelmas,

Oydan tushgan emas, koʻkdan tushgan emas.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Iqbol Mirzo she'rda o'z poetik maqsadini o'quvchiga aniq va tushunarli, shu bilan birga ta'sirchan qilib etkazish uchun bir she'rda bir necha xalq maqollarini keltiradi. Quyidagi to'rtlikda ana shu fikrimizning dalilini ko'rish mumkin:

Otang bozor, onang bozor deydilar,

Kimlar uchun bozor – mozor deydilar,

Bekorchidan xudo bezor deydilar,

Avval keling, ko'ring O'zbekistonni. (“Avval keling, ko'ring O'zbekistonni” she'ridan).

Bunda shoir “Otang bozor, onang bozor” hamda “Bekorchidan Xudo bezor” maqollari vositasida irsoli masal san'atini yaratmoqda. Iqbol Mirzo “O'zbek o'g'li” she'rida ham bir necha o'rinlarda xalq maqollaridan mohirlik bilan foydalangan:

Ikki daryo o'rtasi – keng dasturxon,

Tuz totgansan, tuzlig'ingni unutma.

Dasturxonni belbog' qilib o'stirgan

O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Sadarayhon bukilgani – so'lgani,

Er yigitning egilgani – o'lgani.

Yo'l bermagil dushmanlarga kulgani,

O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma!

Mazkur she'rda pand nasihat ruhi ustun bo'lib, shoir “Tuz totgan tuzlig'ingni unutma”, “Sadarayhon bukilgani – so'lgani, Er yigitning egilgani – o'lgani” kabi xalq maqollarini aynan tarbiyaviy maqsadda keltiradi va shu orqali o'zbek o'g'lonlari yuragida Vatanga muhabbat, burch, sadoqat tushunchalarini uyg'otish hamda yuksaltirishga harakat qiladi. Iqbol Mirzo “Diyorim” she'rida “Bor bo'lsang ko'rolmas, yo'g' bo'lsang berolmas” xalq maqolining mazmunini keltirish bilan irsoli masal san'atining yana bir namunasini taqdim etadi:

Dunyo deganlari g'avg'oli dunyo,

Aldoqchi va g'irrom savdoli dunyo.

Muhtojga berolmas, borni ko'rolmas,

Navoiy aytgandek, “yag'moli dunyo”.

Teran ildizingdan adashtirmasin,

O'zbeгим, o'zingdan adashtirmasin!

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Iqbol Mirzo she‘riyatida xalq maqollari o‘z o‘rnida, shu bilan birga aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan shaklda qo‘llangan. Shuningdek, shoir she‘riyatida xalq maqollari bilan bir qatorda frazeologik birikmalar - iboralarham juda ko‘p uchraydi.

Iqbol Mirzo tomonidan qo‘llangan maqollar va iboralar ko‘p hollarda fikran lo‘nda, aniq va obrazli. Zero, shoir ishlatgan maqol va iboralar badiiy nutqqa mazmuniy salmoq, o‘ziga xos jilo baxsh etgan. Shoir qo‘llagan maqollar va iboralarda o‘zbek xalqining o‘ziga xos turmush tarzi, ma‘naviy qiyofasi, dunyoqarashi, ruhiyati o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham shoir asarlari halq hayoti, ruhiy olamiga juda yaqindir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent, 2007.
2. Mirzo, Iqbol. Sizni kuylayaman. Toshkent, 2007.
3. Normatov U. Adabiy jarayon bir yerda depisinib turmaydi.// Yoshlik// 2022- yil, 5-son.
4. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
5. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta‘siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
6. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
7. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
8. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.